

2022-yil yanvar-iyun oylarida  
ijtimoiy transfertlar tarkibi:

Pensiyalar:  
71,5%

Nafaqalar:  
26,6%

Stipendiyalar:  
1,9%

# YOSHLAR OVOZI

**BIZ – KELAJAK  
BUNYODKORIMIZ!**

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,  
adabiy-badiiy  
gazeta

# 63 (16516)  
2022-yil, 10-sentabr  
shanba

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925-yildan chiqq boshlagan

Yoshlar siyosati  
3-bet

Imkoniyatlar  
cheklanmagan

Besh tashabbus olimpiadasi  
5-bet

Ikkinchi mavsum  
boshlandi

Til bilimi  
7-bet

Dubletlar



## O'ZINI O'ZI BAND QILISH FAOLIYAT TURLARI YANA 10 TAGA KO'PAYDI

2022-yil 1-noyabrdan kulolchilik ham o'zini o'zi  
band qilish faoliyat turiga kiritiladi

batafsil  
2-betda

# O'ZINI O'ZI BAND QILISH FAOLIYAT TURLARI YANA 10 TAGA KO'PAYDI

Prezidentimizning "Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, yana 10 ta faoliyat turi o'zini o'zi band qilgan shaxslar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatiga kiritildi.

Shahruza SATTOROVA,  
"Yoshlar ovozi" muxbiri



soblash miqdorining 1 baravarida ijtimoiy soliq to'lash kifoya. O'zini o'zi band qiluvchilar uchun mehnat shartnomasi, rahbar va qat'iy ish jadvali yo'q. Sevimli ish bilan xohlagan vaqtda shug'ullanish va bundan qonuniy daromad olish mumkin.

Bundan tashqari, mijozlar bazasini kengaytirishda ham bir qancha qulayliklar mavjud. O'zini o'zi band qilgan shaxslar yuridik shaxslardan pul o'tkazish yo'li bilan to'lovlarni qabul qilish uchun bankda osongina hisob ochishlari mumkin. Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik esa sheriklar orasida ishonchni uyg'otadi. Eng asosiysi, o'zini o'zi band qilganlar yakka tartibdagi tadbirkorlar singari buxgalteriya hisobini yuritish, hisobot yuborish yoki soliq deklaratsiyasini topshirishlari shart emas. Daromad va xarajatlarni ixtiyoriy ravishda Soliq ilovasida to'g'ridan-to'g'ri kuzatib borishlari mumkin.

## SOLIQ VA MAJBURIY TO'LOVLAR

O'zini o'zi band qilish faoliyatidan olingan barcha daromadlar jismoniy shaxslar daromad solig'iga (JShDS) tortilmaydi: qancha topsa ham o'zida qoladi. Bir yilda bir marta BHMning 1 baravari – ayni paytda 300 ming so'm ijtimoiy soliq to'lash kifoya. Pulni har qanday to'lov tizimi o'tkazish mumkin. Ular hech qanday sug'urta va boshqa yig'img'irlarni to'lamaydilar. O'zini o'zi band qilganlarning ruxsat berilgan faoliyat turlari ro'yxatidagi faoliyatdan olingan daromadlarigina jismoniy shaxslar uchun daromad solig'i to'lashdan ozod qilindi. Agar daromad boshqa faoliyat turidan olingan bo'lsa, unda JShDS to'lash kerak.

Kasal bo'lganda yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganda o'zini o'zi band qilganlar uchun davolanish va mehnat ta'tillari yo'q. Kasal bo'lib qolsa va ma'lum bir muddat ishlay olmasa, hech kim yo'qotilgan pullarni to'lab bermaydi. Mehnat faoliyatini uzoq muddatga to'xtatish kerak bo'lib qolsa, bu haqda soliq organini ogohlantirish kerak bo'ladi. Shunda ishlamagan vaqtlari uchun ijtimoiy soliq to'lama ham bo'ladi. Bu vaqt davomida ish staji ham hisobga olinmaydi.

## OYLIK DAROMAD, CHEKLOVLAR, ISH STAJI...

O'zini o'zi band qilganlarda oylik yoki yillik daromad bo'yicha hech qanday cheklovlar yo'q. O'zini o'zi band qiluvchi sifatida oyiga 10 million so'm ishlab topsangiz ham, hech kim faoliyatingizni to'xtatib, YATT yoki MChJ ochishga majburlamaydi.

Ish staji jarayonida esa soliq organlari xodimi o'zini o'zi band qilgan shaxsni ro'yxatga oloyatganda u haqdagi ma'lumotlarni Davlat soliq qo'mitasining o'zini o'zi band qilgan shaxslar ma'lumotlar bazasiga kiritadi. Keyinroq uni Yagona milliy mehnat tizimiga (YAMMT) integratsiya qiladi, shuning uchun ish staji rasman hisoblanadi. Biroq ish staji hisobga olinishi uchun ijtimoiy soliq to'lanishi lozim.

Agar siz ushbu maqomdan voz kechmoqchi bo'lsangiz, istalgan vaqtda faoliyatni to'xtatish mumkin. Buning uchun "Soliq mobil" ilovasi orqali soliq organini xabardor qilish kifoya. Buni faoliyatni to'xtatgunga qadar amalga oshirish lozim. Keyinroq soliq organlari xodimlari o'zini o'zi band qilish maqomini DSQ bazasidan o'chiradi.

nechtasini birvarakayiga tanlasa ham bo'ladi. Asosiy ish joyida mehnat shartnomasi bo'yicha ishlab, bir vaqtning o'zida o'zini o'zi band qilish ham mumkin. Muhimi, asosiy ishdagi faoliyat turi o'zini o'zi band qilish uchun ruxsat berilgan faoliyat turlari ro'yxatiga kirmagan bo'lishi kerak. Masalan, kun bo'yi mehnat shartnomasi asosida kotibalik bilan shug'ullanish, kechasi o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida matn yozish bo'yicha xizmatlarni (kopirayting) ko'rsatish mumkin.

## O'ZINI O'ZI BAND QILISH MAQOMINI OLIISH QANCHAGA TUSHADI?

O'zini o'zi band qilish uchun to'lov yo'q. Buning uchun ikki yo'l bilan ro'yxatdan o'tish mumkin. Birinchisi, tuman soliq inspeksiyasiga murojaat qilinsa, xodim anketa to'ldiradi. Yoki soliq to'lovchining shaxsiy kabineti yoki Davlat soliq qo'mitasining "Soliq mobil" ilovasi orqali mustaqil ravishda ro'yxatdan o'tish mumkin. Jarayon 30 daqiqadan ko'p vaqt olmaydi. Cheklanmagan muddatga ro'yxatdan o'tiladi. Anketalar to'ldirilgandan keyin o'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida ro'yxatdan o'tganlik to'g'risida QR-kodli ma'lumotnoma beriladi. Shu yerning o'zidan ijtimoiy soliqni ham to'lash mumkin, buning uchun plastik karta hisob raqami va amal qilish muddatini kiritish kifoya.

## QANDAY FOYDALI JIHATLARI BOR?

O'zini o'zi band qilishning foydali ekanligiga bir qancha sabablar bor. Avvalo, uyda ishlash imkoniyati. O'zini o'zi band qilganlar soliq tekshiruvlari, jarimalar va noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bo'yicha ayblovlardan qo'rqmasliklari mumkin. Pensiya haqida qayg'urmasa ham bo'laveradi. Negaki, o'zini o'zi band qilganlarning ish staji ketaveradi, shuning uchun keksalikda kafolatlangan pensiya naqd deb hisoblash mumkin. Shuningdek, bunday shaxslar iste'mol kreditlari, imtiyozli qarzar olish, shuningdek, soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin. Daromad solig'i yoki boshqa yig'img'irlar yo'q. Bir yilda bazaviy hi-

Yurtimiz aholisi ushbu hujjat asosida 2022-yil 1-noyabrdan o'zini o'zi band qilish orqali uy hayvonlari (qoramol, qo'y, echki, ot va boshqalar) va avtomobil bozorlarida vositachilik xizmati, rieltorlik xizmatini ko'rsatish (ijaraga uy topib berish, uy sotib olish va sotishga ko'maklashish), uyda sut va sut mahsulotlarini qayta ishlash hamda sotish xizmati, maishiy buyumlarni ijaraga berish xizmati (stol-stul, idish-ovoq, asbob-uskuna va boshqalar), gips va ganchdan buyumlar yasash (uy jihozlari, ertak qahramonlari haykallarini yasash), tosh va tosh mahsulotlaridan yodgorlik, suvenir va dekorativ buyumlar tayyorlash, yog'och mahsulotlaridan savat, non mahsulotlari uchun maxsus idish va boshqa buyumlarni to'qish, uy sharoitida pilla yetishtirish, shaxsiy tomorqa yer uchastkasida tut mevasi, niholi va ko'chatini yetishtirish, uyda ipak mato, ipak gilam to'qish va sotish hamda kulolchilik bilan shug'ullanishlari mumkin.

**Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy:** o'zini o'zi band qilish maqomi nimani anglatadi? O'zini o'zi band qilishning qanday foydali jihatlari bor? Qanday soliq va majburiy to'lovlarni to'lash kerak? Oylik daromad bo'yicha cheklovlar mavjudmi? Quyida shu va boshqa savollarga javob topishga harakat qilamiz.

## ASOSIY ISH JOYIDAN TASHQARI HAM O'ZINI O'ZI BAND QILISH MUMKINMI?

O'zini o'zi band qilgan shaxslar o'z ishini o'zi topib, uni o'zi bajarish orqali daromad ko'radigan jismoniy shaxslardir. Repetitorlar, enagalar, santexniklar, elektriklar, sartareshlar, kuryerlar, avtomobil yuvuvchilari, hunarmandlar, farroshlar, tikuvchilar, dasturchilar va yana ko'plab kasb egalari o'zini o'zi band qiluvchilar bo'lishi mumkin. Ularning faoliyati O'zini o'zi band qilgan shaxs sifatida faoliyatni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizom bilan tartibga solinadi. Hozirgi kunda 78 turdagi faoliyat bilan o'zini o'zi band qilish mumkin. Xohishga ko'ra, ularning bir



177

IMKONIYAT



## “TEMURBEKLAR MAKTABI” UCHUN IMTIYOZ



Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 20-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalariga o’qishga qabul qilish, talabalar o’qishini ko’chirish, qayta tiklash va o’qishdan chetlashtirish tartibi to’g’risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida”gi qarori bilan “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilari uchun oliy ta’lim muassasalariga kirishda imtiyoz belgilangan.

Xususan, O’zbekiston Respublikasi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga o’qishga kirishda test sinovlarida o’zlari to’plagan ballarning 30 foiz miqdoridagi, respublikaning boshqa davlat oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirishda esa o’zlari to’plagan ballarning 15 foiz miqdoridagi qo’shimcha ballar ko’rinishida imtiyoz beriladi.

**“Temurbeklar maktabi”ga o’quvchilarni qabul quyidagi tartibda amalga oshiriladi:**

Nomzodlarni “Temurbeklar maktabi” o’quvchilari safiga qabul qilish Davlat test markazi tomonidan o’tkazilgan test sinovlari natijalariga ko’ra amalga oshiriladi. Imtiyozlarga ega bo’lgan nomzodlar dastlabki va harbiy-kasbiy tanlash natijalariga asosan o’qishga qabul qilinadi.

Dastlabki va harbiy-kasbiy tanlashdan o’tgan nomzodlar soni belgilangan qabul kvotalaridan kam bo’lgan taqdirda test sinovlari o’tkazilmaydi va nomzodlar dastlabki va harbiy-kasbiy tanlash natijalariga asosan qabul qilinadi.

Bir nechta nomzodlarning o’tish reyting ballari teng bo’lgan hallarda ular orasida birinchi blok fanidan test natijalari yuqori bo’lgan nomzod qabul qilinadi. Shunda ham baholar teng bo’lib qolgan taqdirda, umumiy o’rta ta’lim to’g’risidagi shahodatnomadagi matematika, fizika, ona-tili va adabiyot fanlaridan olgan yakuniy baholari yig’indisi boshqalarnikidan yuqori bo’lgan nomzod o’qishga qabul qilinadi.

### O’qishga kirishda ayrim turdagi nomzodlarga beriladigan imtiyozlar:

O’zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalariga qabul qilish bo’yicha Davlat komissiyasining qaroriga muvofiq, dastlabki va harbiy-kasbiy tanlashdan muvaffaqiyatli o’tgan quyidagi nomzodlar “Temurbeklar maktabi”ga test sinovlarisiz tanlovdan tashqari o’qishga qabul qilinadi:

- xalqaro va respublika fan olimpiadalarining g’oliblari – belgilangan qabul kvotasi doirasida;

- o’z xizmat vazifalarini bajarish chog’ida halok bo’lgan hamda jarohatlanish (shikastlanish) natijasida nogiron bo’lib qolgan harbiy xizmatchilar, huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligi qutqaruv bo’linmalarida xizmatchilarining farzandlari – kvotadan tashqari;

- yetim, ota-ona qarovisiz qolgan, ijtimoiy nosog’lom oilalarda yashayotgan, davlat va jamiyat ko’magiga muhtoj bo’lgan, joriy yilda umumta’lim maktablarining 9-sinfini tamomlagan Voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash bo’yicha hududiy idoralarda komissiya tavsiyasi hamda tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining qarorlari asosida – kvotadan tashqari, belgilangan kvotaning 5 foizidan ko’p bo’lmagan miqdorda.

Sportni rivojlantirish vazirligi rahbarligida o’tkazilayotgan respublika va xalqaro sport musobaqalarining g’oliblariga Davlat test markazi tomonidan o’tkazilayotgan test sinovlarida ular to’plagan ballarning 20 foizi miqdoridagi qo’shimcha ballar ko’rinishida imtiyoz beriladi.

# IMKONIYATLAR CHEKLANMAGAN

## FARG’ONA VILOYATIDA 353 NAFAR NOGIRON YOSHGA YORDAM KO’RSATILDI

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan nogironligi bor shaxslarga moddiy yordam, shu bilan birga, mehnat qilishlariga zarur sharoitlar yaratib berilayotgani yoshlariga oid Davlat siyosatining bir ko’rinishidir. Birgina Farg’ona viloyati misolida oladigan bo’lsak, hududda nogironligi bo’lgan yoshlar 5407 nafarni tashkil etib, shu yilning 7 oyi davomida ularning 353 nafariga turli darajadagi yordamlar ko’rsatildi. Jumladan, 21 nafar yoshlarning davolanishi uchun 37 million so’m mablag’ ajratildi.



Imkoniyati cheklangan yoshlarning ta’lim olishi va jamiyatda o’z o’rnini topishga ko’maklashish maqsadida 54 nafar nogironligi bo’lgan yoshning 156 million so’m dan ortiq kontrakt puli, nodavlat o’quv markazlarida kasb o’rganayotgan 3 nafar yoshning 7 million so’m to’lovlari to’lab berildi.

Imkoniyati cheklangan yoshlarni ijtimoiy qo’llab-quvvatlash borasida ham samarali ishlar olib borilgan bo’lib, 30 nafar yoshga 32 million so’m dan ziyod bir martalik moddiy yordam ajratildi. 5 nafariga esa turar joyi uchun 7 million so’m ijara puli, yana besh nafarining haydovchilik kurslari uchun 5 million 400 ming so’m to’lovlari to’lab berildi.

Shuningdek, 29 nafar nogironligi bo’lgan yoshlarga mehnat qilishlari uchun asbob-uskunalar sotib olish uchun 98 million 706 ming so’m, 3 nafariga esa tibbiy jihozlar sotib olish uchun 6 million 800 ming so’m subsidiya ajratildi. 28 nafar yoshga dehqonchilik bilan shug’ullanishi uchun yorajratilib, bandligi ta’minlandi.

Farg’ona viloyati “Inklyuziv ta’lim markazi” Marg’ilon shahridagi viloyat imkoniyati cheklangan maxsus maktab-internatida joylashgan. Markaz internatning malakali pedagog xodimlari bilan doimiy ravishda hamkorlik qilib kelmoqda. Bu yerda yoshlarning ta’lim olishi, kasb-hunar o’rganishi uchun shart-sharoitlar yaratilib, zarur jihoz va texnikalar bilan ta’minlandi.

Dastlab yoshlarni kasb-hunar va ta’limga o’rgatish uchun jamoatchilik asosida ko’ngilli koordinatorlar jalb qilin-

gan bo’lsa, keyinchalik ularga munosib oylik ish haqi bilan ta’minlashga ham e’tibor qaratila boshlandi. Bugun inklyuziv markazda 60 nafariga yaqin imkoniyati cheklangan yoshlar malakali koordinatorlar tomonidan tikuvchilik, zamonaviy pardalar bichish va tikish, boshlang’ich kompyuter savodxonligi, logopediya, surdopedagogika kabi yo’nalishlar bo’yicha ta’lim berilmoqda. Yaqin kunlarda markaz koordinatori Yulduzxon Ismoilova tashabbusi va yoshlarning istaklariga binoan, qandolatchilik to’garagini yo’lga qo’yish rejalashtirilgan bo’lib, ayni damda yoshlar ro’yhati shakllantirilmoqda.

Yoshlar ishlari agentligining Farg’ona viloyati boshqarmasi tomonidan imkoniyati cheklangan yoshlarni har tomonlama qo’llab-quvvatlash, ularning orzu-istaklarini ro’yobga chiqarishga ko’maklashish borasida turli loyihalar, tadbirlar o’tkazib borilishi an’anaga aylangan. Jumladan, mahallalardagi yoshlar yetakchilari tashabbusi bilan ichki turizmni rivojlantirish maqsadida 1860 nafar imkoniyati cheklangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar uchun viloyatning diqqatga sazovor maskanlariga, ziyoratgohlar va tarixiy obidalarga sayohatlar uyushtirildi.

Shuningdek, Yoshlar ishlari agentligining tuman va shahar bo’limlari tomonidan ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarning 121 nafar iqtidorli farzandlarining ro’yxatlarini shakllantirilib, asosiy turdagi o’quv qurollari, badiiy kitoblar va zamonaviy maktab formalari bilan ta’minlandi.

**Husniya AKRAMOVA,**

Yoshlar ishlari agentligining Farg’ona viloyati boshqarmasi ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlar bilan ishlash bo’limi mutaxassisi

# ENG AFZAL HALOVAT

Samarqand viloyati Pastdarg'om tumanidagi "Tinchlik" mahallasiga yoshlar yetakchisi tayinlangandan buyon mahallada 10 nafardan ortiq yoshlar o'z tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ular asosan, savdo-sotiq, tikuvchilik, dehqonchilik, novvoylik, chorvachilik kabi yo'nalishlarda ishlamoqda. Bunda ularga yoshlar yetakchisi Sabina Bayonova yaqindan yordam bermoqda. Qiziqshidan kelib chiqib yosh tadbirkorlarni kashf etmoqda. Yetakchi bu borada nimalarga ahamiyat beryapti?

Iqbol PARDAYEVA tayyorladi.


– Xatlov jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan 25 nafar ishsiz yoshni aniqlab, "Yoshlar daftar"ga ro'yxatga kiritdim. Hozirga qadar bir qanchasining muammolari yechilib, bandligi ta'minlandi.

**Dehqonchilikni** yaxshi biladigan yoshlardan biri – Suxrob Nabiyeva 16 million so'mlik imtiyozli kredit olishiga ko'maklashdik. U o'z hovlisining 3 sotixli yeridan issiqxonona qurishni boshladi. Yaqin orada tayyor bo'ladigan issiqxonada qish mavsumi uchun pomidor va bodring yetishtirish rejalashtirilmoqda.

Yana 11 nafar yoshga 16 sotixdan yer ajratilib, bandligi ta'minlandi. Bugun ular yerdan umumli foydalanib, sabzavot, poliz, dukkakli ekinlarni parvarishlamoqda, daromad olishni ham boshladi.

**Chorvachilik** bilan shug'ullanish istagidagi 3 nafar yosh tavsiyam asosida 18 million so'mdan imtiyozli kredit asosida 10 boshdan qo'y olib, chorvachilikni boshladi. Hozir ular qo'ylari sonini 13-14 boshga yetkazdi – daromad qila boshladi.

**Samarqand noni dunyoga mashhur.** Bu zaminda ko'pchilik novvoylik bilan ro'zg'orini tebratadi. Mahallamizda ham bir qancha



**Sabina BAYONOVA,**  
Pastdarg'om tumanidagi  
"Tinchlik" mahallasi yoshlar  
yetakchisi:

yosh novvoylar bo'lib, ular bu sohada yaxshigina tajriba egasi. "Yoshlar daftar"ga ro'yxatga kiritilgan ikki nafar yoshni yosh novvoylarga shogirdlikka berdik. Ular bu sohani yaxshi o'rgangach imtiyozli kredit olishga tavsiya bermoqchiman.

Mahallamiz yoshlari orasida **oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yganlari ham bor.** Ulardan biri – Boboxon Musayevlar oilasi o'z xonadonida biogumus tayyorlashni yo'lga qo'ydi. Biogumus go'ngdan tayyorlangan tabiiy va sifatli organik o'g'it bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarining barchasiga qo'llash mumkin. Ularga yordam qilish maqsadida mahsulot haqida tumanimizning barcha hududiga e'lon tarqatdik. Hozir mijozlari ko'p.




Yana bir yosh Dilnoza Saidovaga inkubator jihozlarini subsidiya asosida olib berdik. U mahallamizdagi parrandachilik qilish istagini bildirgan aholiga jo'ja yetkazib bermoqda.

Yana bir yosh oila nogiron farzandini parvarishlayotgani bois hech qayerda ishlay olmayotgan edi. O'sha oila bekasi uchun subsidiya asosida **tikuv mashinasi olib berdik.** U mahalla xotin-qizlariga liboslar tikib, daromad topmoqda.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj oila farzandlarining safarbarlik **chaqiruv rezervidagi xizmatni o'tash badali subsidiya asosida qoplab berildi.** Boquv-

chisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj **Bilol Ahmadjonovga to'lov-kontrakt puli to'lab berildi.** Og'abek Ubaydullayevga esa traktor haydovchiligi bo'yicha o'quv kursi xarajatlarini subsidiya asosida qoplab berdik. Ikki nafar yoshni Samarqand shahridagi "Ishga marhamat" monomarkaziga tikuvchilik yo'nalishida o'qishga yo'naltirdim.

Bu ishlardan anglamoqdaman-ki, hayotdagi eng yaxshi halovat, bu ado etilgan burchdan zavqlanishdir. Men "Tinchlik" mahallasi yoshlarining orzusi ushulishiga yordam berayotganimdan g'ururlanaman. Buning barchasi bizga berilgan imkoniyatlar sababidir.



## 9 "REKLAMA TO'G'RISIDA"GI QONUN KUCHGA KIRDI / NIMALAR O'ZGARDI?

– sentabrdan "Reklama to'g'risida"gi qonun kuchga kirdi.

Qonunda asosiy tushunchalar qatoriga axloqsiz reklama, nomaqbul reklama, rag'batlantiruvchi aksiya kabi yangi tushunchalar ham kiritilgan.

Qonunga ko'ra, O'zbekistonda reklama davlat tilida tarqatilishi va reklama mazmunining boshqa tillardagi tarjimasini matni uning davlat tilidagi asosiy ma'nosini buzib ko'rsatmasligi kerak. Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi esa reklama aylanishi sohasida vakolatli davlat organi hisoblanadi.

**Qonunga ko'ra, quyidagilar taqiqlanadi:**

- ona sutining o'rnini bosuvchi mahsulotlarni reklama qilish;
- ta'lim muassasalarida foydalaniladigan bosma nashrlar (darsliklar, kundaliklar, daftar va boshqalar)da tovarlarni reklama qilish;
- narxlarni (tariflarni) chet el valyutasida ko'rsatish;
- bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda axborot mahsulotini yosh tasnifini ko'rsatmasdan reklama qilish;
- milliy va oilaviy an'analarga, shuningdek, axloq va ma'naviyatning umum qabul qilingan normalariga zid bo'lgan shakllar, iboralar va obrazlardan foydalanish;

- energetik ichimliklarning reklamasini soat 07:00 dan soat 22:00 gacha televideniye va radio orqali reklama qilish;
- tamaki mahsulotlarini hamda tamaki va nikotini iste'mol qilish moslamalarini reklama qilish.

Bundan tashqari, dori vositalarini reklama qilishda taniqli shaxslarning, tibbiyot xodimlarining yoki tashqi ko'rinishi shifokorlarning tashqi ko'rinishiga o'xshash shaxslarning ishtirok etishi taqiqlanadi. Shuningdek, alkohol mahsulotlari reklamasiga yo'l qo'yilmaydi, ammo O'zbekistonda ishlab chiqarilgan pivo, tabiiy va ko'pkalnadigan vinolarni reklama qilishga ayrim hollarda yo'l qo'yiladi.

# IKKINCHI MAVSUM BOSHLANDI

Mahalladagi yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va yoshlarning madaniyat, san'at, sport, kitobxonlik, IT yo'nalishlari bo'yicha iqtidorini kashf etish hamda qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning aprel-iyun oylarida ilk marotaba besh bosqichda "Besh tashabbus olimpiadasi"ning birinchi mavsumi o'tkazilgan edi.

"Yoshlar ovozi" muxbiri

Muhammadshukur MUHAMMADJONOV suhbatlashdi.

## 2022

– yil 30-iyun – Yoshlar kuni munosabati bilan tashkil etilgan uchrashuvda Prezident "Besh tashabbus olimpiadasi"ni har yili ikki mavsumda tashkil etish topshirig'ini bergan edi. Olimpiadaning ikkinchi mavsumiga ishtirokchilarni ro'yxatga olish joriy yil 10-avgustdan 9-sentabrgacha davom etdi. Bugun – 10-sentabrdan mahallalarda musobaqalarga start berildi. Dastlabki bahslar stol tennis bo'yicha o'tkaziladi.

Bu haqda poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida o'tkazilgan matbuot anjumanida batafsil ma'lumot berildi.

"Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumida qanday yangiliklar borligi, yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida bilish uchun **Yoshlar ishlari agentligining besh tashabbus loyihalari ni muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i Indira Xoldarova** bilan intervyu tashkil etdik.

– "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumida birinchi mavsumda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamaslikka harakat qilinmoqda. Xususan, besh bosqichli bellashuvlarda turli mahallalardan terma jamoalar tashkil etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Musobaqalarning barcha bosqichlarida qattiq nazorat o'rnatilmoqda.

– Ikkinchi mavsum oldingisidan nimasi bilan farq qiladi? Qanday o'zgarishlar bor?



– Birinchi mavsumda madaniyat yo'nalishida "Yoshlar ovozi" tanlovi o'tkazilgan. Yoshlar mazkur yo'nalishda nafaqat vokal, balki raqs hamda turli cholg'u asboblari chaladiganlar uchun ham loyihalalar o'tkazish takliflarini bildirishgan. Takliflardan kelib chiqib, **ikkinchi mavsumda "Raqs fest" hamda "Milliy va zamonaviy cholg'u ijrochiligi" tanlovlari o'tkaziladi.** Sportga qiziqadigan yoshlar uchun esa ikkinchi mavsumda **kurash sport turi tashkil etiladi.**

– Olimpiadaning birinchi mavsumida yoshlar o'zlari ro'yxatda turadigan mahalla nomidan musobaqalarda ishtirok etgan. Ikkinchi mavsumdachi?

– Mahallalarda faoliyat yuritayotgan yetakchilarning asosiy vazifalaridan biri yoshlarning vaqtini mazmunli o'tkazish. Shu bois, ikkinchi mavsumda ham yoshlar o'zi ro'yxatda turadigan mahalladan ishtirok etish talablari saqlab qolindi.

– O'quv yili boshlandi. Talabalar "Besh tashabbus olimpiadasi"da ishtirok etmoqchi bo'lsa, ularga qandaydir sharoit yaratib beriladimi? Aytaylik, yashash hududidan uzoqda ta'lim olayotgan yoshlarga?

– O'tgan mavsumdagi olimpiadada barcha loyihalarda talaba-yoshlar vaqtincha ro'yxatdan o'tgan mahallasidan ishtirok etgan. Biroq

sport musobaqalarida mazkur holat bo'yicha tushunmovchiliklar yuzaga kelib, qator e'tirozlar tug'ilgan. Sportni rivojlantirish vazirligining malakali mutaxassislari va murabbiylar fikrlarini inobatga olinib, olimpiadaning ikkinchi mavsumida sport musobaqalarida yoshlar (nizomga asosan) faqat doimiy ro'yxatdan o'tgan mahallasi nomidan ishtirok etishi belgilangan.

– Ikkinchi mavsum bo'yicha mahalladagi yoshlar yetakchilari uchun ham targ'ibot ishlari olib borilmoqdami?

– Joriy yilning iyul oyida Yoshlar ishlari agentligining tuman/shahar, hududiy besh tashabbus bo'yicha mutaxassis, sho'ba mudirlari, ta'lim muassasalarida yoshlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassislari uchun "Besh tashabbus olimpiadasi"ning ikkinchi mavsumini qanday tartibda o'tkazish bo'yicha o'quv seminar tashkil etildi. Shuningdek, avgust oyi targ'ibot oyligi deb e'lon qilinib, oylik doirasida mahallalarda faoliyat yuritayotgan yetakchilar uchun o'quv-seminar o'tkazildi, targ'ibot materiallari, video o'quv roliklari ishlab chiqildi.

Yuqorida amalga oshirilgan ishlar natijasida @beshtashabbusbot orqali olimpiadada ishtirok etish istagini bildirgan 3,5 million nafardan ziyod yoshlardan arizalar kelib tushdi.

Yangi loyiha

ORIENTATION WEEK

## TALABA-YOSHLARNI BIR MAQSAD YO'LIDA BIRLASHTIRDI

Yangi o'quv yili oldidan Yoshlar ishlari agentligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamkorligida respublikamizdagi barcha oliy ta'lim muassasalarida "Orientation week" loyihasi tashkil etildi. Loyihaning maqsadi, vazifalari, kutilayotgan natijalari haqida Yoshlar ishlari agentligi mas'ul xodimi Laziz Qayumov muxbirimizga quyidagilarni so'zlab berdi.



– Bu loyiha oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan 1-bosqich talabalarining ta'lim muassasasi hayotiga tezroq moslashishiga ko'mak berish, loyiha va tanlovlar, imtiyozlar bilan ularni yaqindan tanishtirish, bilim va ko'hikmalarini oshirish maqsadida tashkil etilmoqda. 5–9-sentabr kunlari barcha oliy ta'lim muassasalarida bo'lib o'tgan loyiha doirasida 10 dan ortiq ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etildi.

Loyiha bo'yicha ko'plab xorijiy davlatlardagi ta'lim muassasalarining "Tanishtiruv haftaligi" ("O-week", "Fresh week", "Welcome week" yoki "Freshers week" kabi) tajribalari o'rganildi. Tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, tanishtiruv haftaligi orqali talaba yoshlar, jamoatchilik orasida ta'lim muassasasi brendini yaratish, yoshlarning o'z ta'lim muassasasi-ga mehr qo'yishi hamda haftalik-



da ishtirok etgan talaba va o'quvchilarning o'rta 20 foizdan yuqoriroq akademik muvaffaqiyatga erishgani aniqlandi.

Mustaqillik darslari o'tilishi, ta'lim muassasasi rahbariyati, yoshlar bilan ishlashga

mas'ullar bilan uchrashuvlar tashkil qilindi. Bundan tashqari, grantlar, forumlar, stipendiyalar, festivallar, konferensiyalar haqida ma'lumot berildi. Sport musobaqalari, intellektual o'yinlar tashkil etildi. Bu ishlarining barchasi talabalarning ta'lim muassasasi hayotiga tezroq moslashishiga ko'maklashish, ularning vaqtini mazmunli tashkil etishga va yoshlarni birlashtirishga qaratilgan.

5 kun davomida jami 100 mingdan ortiq talaba ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda faol ishtirok etdi. Bildirilgan fikrlar, tashabbuslar kelgusida talabalar bilan ish olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.

# MILLATNING "OLTIN FONDI"

Ziyoda RAHIMBOYEVA tayyorladi.

Yurtimiz yoshlari turli sohalardagi kashfiyotlari, shov-shuvli natijalar bilan nafaqat o'zimizda, balki dunyo miqyosida ham munosib e'tirof etilmoqda. Yurt davrug'ini dunyoga tanitayotgan umidli yoshlarimiz muvaffaqiyat yosh tanlamasligini amalda isbotlamoqda.

Ushbu maqolada shunday yoshlarning kichik reytingini tuzishga, ularning hayot formulalari bilan tanishishga harakat qildik!



## DUNYO SARI...

So'nggi ikki yilda ilmga chanqoq, yangi bilimlar sari intilishdan to'xtamaydigan 400 nafar yoshlarimiz "El-yurt umidi" jamg'armasi orqali chet ellardagi eng nufuzli oliy ta'lim muassasalarida o'qishga yuborildi. O'rnak qilib ko'rsatsak arzigulik yoshlardan toshkentlik Lamiya Xudoyarova Oksford universitetiga, buxorolik Rasulbek Bahodirov London universitetiga, samarqandlik Nilufarxon Ro'ziyeva

Chikago universitetiga o'qishga qabul qilindi. Bu biz uchun shunchaki statistikagina emas, dunyoning Top-10 taligiga kiritilgan eng nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olib qaytgan yoshlarning kelajakda yurt ravnaqiga qo'shajak hissasidan ham darak berib turibdi.

Shu bilan birga, yana ko'plab iqtidorli yoshlarimiz so'nggi bir yil ichida xalqaro fan olimpiadalarida 255 ta medalni qo'lga kiritdi. Ularning aksariyati hali maktabni ham tamomlamaganini hisobga olsak, yuqori ko'rsatkich sifatida e'tirof etish mumkin! Joriy yilda 382 nafar umidli sportchi yoshlarimiz nufuzli xalqaro musobaqalarda 419 ta sovrinli o'rinlarni egalladi. Jumladan, Nodirbek Abdusattorov va Umida Omonova – tezkor shaxmat bo'yicha, Zuhriddin Qodirov qilichbozlik bo'yicha jahon chempioni bo'lgani, 23 yoshgacha futbolchilarimiz Osiyo chempionatining kumush medalini qo'lga kiritgani, shubhasiz, butun xalqimizga g'urur bag'ishladi.

Ilmga intiluvchan yoshlar uchun yuksak marra hisoblanuvchi Prezident maktablarini o'tgan o'quv yilida bitirgan 424 nafar o'g'il-qizning barchasi oliy ta'lim muassasalariga qabul qilindi. Ayniqsa, ulardan 102 nafari xorijdagi yetakchi oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgani tahsiniga sazovordir. Kimdir uddalagan ishni siz ham uddalay olasiz, ayniqsa, u siz bilan tengdosh, sizdek, ammo yaratilgan sharoitlardan sizdan ko'ra ko'proq foydalanishga harakat qilayotgan inson bo'lsa. Ushbu maqolani sizga millatimiz faxriga aylangan tengdoshlaringizni tanishtirish maqsadida tayyorladik. Ularning muvaffaqiyatlaridan ruhlanib, harakatni boshlash esa sizning tanlovingiz, aziz tengdoshim!

Prezidentimiz nutqidan keltirilgan iqtibos ham siz uchun motivatsiya bo'lishiga ishonamiz!

**"Bu o'g'il-qizlarimiz xalqimizning oltin fondi, Uchinchi Renessans bunyodkorlari desam, hech mubolag'a bo'lmaydi".**

Har birimiz "Oltin fond" deb e'tirof etilishga munosibimiz, harakatni bugundan boshlang!



## "FARZANDIMNING ISMI NODIRBEK BO'LADI"

Polshalik shaxmatchi Kamil Plichta o'zining Twitter tarmog'idagi sahifasida yozib qoldirgan bu izohi yosh o'zbek shaxmatchilariga dunyo hamjamiyatining hayratlanarli munosabatining yorqin misolidir.

Butun o'zbek xalqi shodiyona bilan kutib olgan "oltin avlod" g'alabasi yana bir sohada yangi renessans boshlanganini ko'rsatmoqda. Dunyoda hech narsa mamlakatni sportchilik dunyoga tez tanita olmaganidek, har bir millatning 10 yildan keyingi taqdirini yoshlarining qiyofasiga qarab aytib berish mumkin. Bir necha yuz yillik tarixga ega xalqimizning bugungi yoshlari esa birgina shaxmatning o'zidayoq dunyoda "shaxmat qiroli" deb e'tirof etilgan nomdor sportchilarni hayratda qoldirdi. Siz ularni juda yaxshi tanisiz, telekan, gazeta, jurnal yoki hayotda ko'rsangiz, faxrlanib ketasiz, biroq biz ularni yana bir bor yodga olishni lozim topdik!

**Nodirbek Abdusattorov** – shaxmat bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.

**Jahongir Vohidov** – shaxmat bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.

**Shamsiddin Vohidov** – shaxmat bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.

**Javohir Sindarov** – shaxmat bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.

**Nodirbek Yakubboyev** – shaxmat bo'yicha O'zbekiston milliy terma jamoasi a'zosi.


Xalqiga munosib o'g'lonlar sabab O'zbekistonni butun dunyo yana bir bor tanidi, qo'yl qoldi! Millat qizlari deb e'tirof etishga arzigulik yosh shaxmatchi qizlarimiz: **Maftuna Bobomurodova, Marjona Malikova, Umida Omonova, Afruzna Hamdamova, Nilufar Yakubboyeva** ko'rsatgan natijalar ham olqishga arziydi. Aynan shu yoshlarimiz sabab O'zbekiston shaxmat federatsiyasi **FIDE reytingida 18-o'ringa ko'tarildi**. Yuqori natijaga ega shaxmatchilar reytingda o'zbekistonliklari soni ilk marta 4 nafarga yetdi.

## 11 YOSHDA IELTS'DAN 7 BALL

IELTS (International English Language Testing System) haqida eshitmagan yosh oramizda topilmasa kerak. Ayniqsa, maktab o'quvchilari va abituriyentlar orasida "mashhur" bo'lgan bu ko'p bosqichli sinov uzoq muddatli o'qish, izlanish va mashaqqatli mehnatni talab etsa-da, beradigan imkoniyatlari uchun arziqli hisoblanadi! Shunday mashaqqatli sinovda yaxshi natijaga erishgan qiz endigina 11 yoshni qarshi oldi, ammo undagi shijoat, intilishni hatto kattalarga ham o'rnak qilib ko'rsatsa bo'ladi.

**Sabrina Nurillayeva** – Buxoroda istiqomat qiluvchi 11 yoshli maktab o'quvchisi til bilish darajasini belgilovchi xalqaro IELTS imtihonidan 7 ballni qo'lga kiritdi. Bu hayratlanarli va ayni paytda faxrlanishga arzigulik natija. Bir vaqtlar "Bir emas, to'rt til lozim", deya kuyungan Behbudiy avlodlari bugun yanada ko'paymoqda. Sabrining orzusi bir marta bo'lsa-da, Prezident maktabi darslarida qatnashish, shunchaki sinfonasida o'tirish. Chunki u xorijlik o'qituvchilarning qanday saboq berishiga qiziqadi.

**"BIR EMAS, TO'RT TIL LOZIM", DEYA KUYUNGAN BEHBUDIY AVLODLARI BUGUN YANADA KO'PAYMOQDA.**



# KITOB LARNI



## QANDAY TARTIBLASH KERAK?

### 1. NASHRIYOTLAR NOMIGA QARAB

Masalan, "Asaxiybooks", "Yangi asr avlodi", "Akademnashr", "Factorbooks", "Zukko kitobxon", "Hilolnashr", "Ilm ziyo zakovat" va yana ko'plab nashriyotlarning kitoblarini har qanday sinchkov kitobxon farqlay biladi. Siz ularni shunday guruhlab tartiblashingiz mumkin.

### 2. MINTAQALAR YOKI MAMLAKATLARIGA QARAB

Bunda siz rus adabiyoti, Amerika adabiyoti, Britaniya, Fransiya, Germaniya, Sharqiy Osiyo adabiyoti, turk-arab, Lotin Amerikasi adabiyoti va o'zbek adabiyoti kitoblarini

alohida qo'ysangiz bo'ladi. Javonning ustiga kichkina qog'ozchalar bilan mintaqalarning nomlarini yozib qo'ysangiz, undan ham yaxshi (xuddi kutubxonalaridagi kabi). Bu usul juda qulay.

### 3. JANRLAR BO'YICHA

Bu eng oson usul bo'lib, badiiy kitoblar alohida, ilmiy-uslubiy kitoblar alohida, ommabop va psixologiyaga oidlari alohida, tarix va falsafa, lug'atlar hamda qomuslar ham alohida-alohida joylanadi. Shuningdek, badiiy kitoblarni ham – she'riyat va nasr, dramaturgiya va tanqidchilik, publitsistika va adabiyotshunoslikka bo'lib tartiblash mumkin. Har bir bo'limga nomini yopishtirib chiqish ziyon qilmaydi.

### 4. TIL BO'YICHA

Bunda o'zbek tilidagi kitoblarni bir taraf, chet tildagilarini bir taraf qilib tartiblaysiz. Tillar bo'yicha joylashganda esa ularni qanday tartiblash kitobxonning ixtiyorida.

### 5. XRONOLOGIK TARTIBDA JOYLASHTIRISH

Bu eng qiyin usul bo'lib, asosan, badiiy kitoblarni tartiblashda qo'llash mumkin. Buning uchun siz har bir yozuvchining qaysi davrda va qaysi yilda tavallud topganini bilishingiz kerak. Bu usulni o'zim ko'p qo'llaganim bois ham takliflar orasida aytib o'tmoqdaman.

Har bir kitobxonning o'z shaxsiy kutubxonasi bor: katta yo kichik. Agar sizda katta kitob javoni bo'lsa, juda yaxshi. Javoningiz kichik bo'lsa, uni kattartirishga harakat qilavering, chunki haqiqiy kitobxon uchun ko'p kitob va unga mos javon kerak! Ularni tartiblashning esa o'z estetik zavqi bor. Kitoblarning yoqimli hidi, silliq va yaltiroq muqovalari, muqovadagi manzaralari kayfiyat ulashadi.

Shu o'rinda shaxsiy kutubxonasi borlar uchun kitoblarni tartiblash borasida kichik tavsiyalarni o'rtoqlashmoqchiman. Bunday tartiblash nimaga kerak, degan savol tug'ilishi mumkin. Buning javobi oddiy: qidirgan kitobingizni darrov topa olishingiz uchun. Undan tashqari, tartib har qanday ishda muhimdir.

Masalan, sizning kitob javoningizda turli mamlakatlarning adabiy asarlari bor. Siz esa ularning mualliflari tug'ilgan davrga qarab joylashtirasiz. Antik davrning yunon-rim adabiyoti birinchi, o'rta asrlardagi mualliflar – Dante, Bokachcho, Shekspir, Swift, Defo, Gyotelar ikkinchi, so'ngra XIX asr vakillari uchinchiguruh, XX asrda tug'ilganlar undan keyingisida joylashadi. Zamondosh yozuvchilarning asarlarini esa alohida qo'yishingiz qulayroq bo'ladi.

Kitoblarni tartiblashning yana ko'plab usullari bor. Masalan, kitoblarning chop etilgan seriyalari (turkumlari) va ranglariga qarab, alifbo tartibiga ko'ra, hajmiga ko'ra, o'zingizga kerakligiga qarab, o'qilganlar va o'qilmaganlariga qarab, xullas, bu kitobxonning shaxsiy ishi.

**Temur TANGRIBERGANOV**

## BIR SO'Z IZOHI



**Al'amon**

Jangda taslim bo'lgan tomonning omonlik so'rab qiladigan xitobi, Oллоhga nido-si. Umuman olganda, ushbu so'z Oллоhdan omonlik so'rash ma'nosi anglatadi va al'omon shaklida ishlatish o'rinlari ham uchraydi. Al'amon so'zi tilimizga arab tilidan kirib kelgan, arab hamda turkiy til-da yozilgan ko'plab badiiy asarlarda ko'zga tashlanadi.

*Devlar deydi: al'amon, Odamxo'r-ku bu zamon.*

**"Nigor va Zamon" dostonidan**

## DUBLETLAR



**S**iz ish yoki o'qishda bilib-bilmay shu mavzudagi muhokamaga tez-tez aralashib qolasiz. Deylik, hamkasbingiz siz yozgan matndagi bir so'zni xato deydi, siz agar o'sha paytda variantdosh (dublet) so'zdan foydalangan va bu haqda ma'lum bilimga ega bo'lsangiz, suhbatdoshingizga buni tushuntirasiz va to'g'riligini isbotlaysiz, yo'qsa, bu qisqa maqola bilan tanishib chiqishingiz kerak!

Dubletlar – ikki yoki undan ortiq ko'rinishda yoziladigan va ma'no jihatdan bir-biridan sira farqlanmaydigan, eng muhim jihati, **hech bir shakli xato hisoblanmaydigan so'zlar**. Malasan, machit-masjid; kaplar-kabutar; ajdarho-ajdahor-ajdar-ajdaho; Alloh-Olloh kabi so'zlar juftligiga qaraydigan bo'lsak, ularning hammasi bir tushunchani ifodalaydi va barchasi imlo jihatdan to'g'ri hisoblanadi.

Bu so'zlarni paronim va sinonimlardan farqlash kerak. Paronim (talaffuzdosh, talaffuzi bir-biriga yaqin so'z)larda yozilishi va aytilishi bir-biriga yaqin bo'lgan ikki so'zning ma'nolari butunlay boshqa-boshqa bo'ladi: pol-fol; dovon-devon; asl-asil kabi.

Sinonim (ma'nodosh)larda esa shakli butunlay o'zgacha, ma'no qirralarida ham farq sezilib

turadi. Ya'ni sinonimlar yozilishi va aytilishi har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlardir: o't-olovotash-alanga; kulmoq-jilmaymoq-tirjaymoq-ishshaymoq-tabassum qilmoq kabi. Sinonimlarda uslubiy xoslanganlik bo'ladi, ularning qo'llanish doirasi cheklangan. Kulmoq so'zining o'rniga tirjaymoq yoki ishshaymoqni qo'llab bo'lmaydi. Ma'no nozikliklari va uslubiy bo'yoqdorlik sinonimlarga xos xususiyatdir.

Variantdosh so'zlar ma'nosida zarracha farq bo'lmaydi. U bir so'z. Faqat yozilishida farq bor, xolos. Istalgan variantni boshqasining o'rniga qo'llash mumkin. Gado-gaday, biror-bir-biron-bir, iymon-imon, nabira-nevara, yangidan-yangitidan, shosupa-shohsupa va hokazo. Ba'zi variantdosh so'zlar juft so'zlar orasiga bog'lovchi vazifasida kelgan –u affiks-yuklamasining qo'shilish kelish va kelmasligiga ko'ra farq qiladi. Lekin hamma juft so'zlar orasida ham –u yuklamasi biriktirilavermaydi. Masalan: baqiriq-chaqiriq, yemay-ichmay, janjal-suron kabi so'zlar –u yuklamasiz yoziladi. Shuningdek, gohi dog'-hasrat, dog'-hijron, balo-qazo so'zlari –i bilan, yani dog'i hasrat, dog'i hijron, baloyi qazo tarzida yoziladi.

**Rashid XO'JAMOV** tayyorladi.

# “BIZNING YOSH IJODKORLAR”

Loyiha muallifi: **Shahribonu RAHMATOVA.**

Tabiat har qaysimizga turli xil iste'dod beradi. Iste'dodni mehnat orqali charxlab, yuksak cho'qqilarni zabt etish o'zimizga havola. O'ziga berilgan qobiliyatni anglab, rivojlantirayotgan yoshlardan biri – Muhammadqodir Tillaqoziyev. U Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining amaliy san'at asarlarini ta'mirlash yo'nalishida tahsil olmoqda. Muhammadqodirning iste'dodi nimada ekaniga qiziqyapsizmi?

**Muhammadqodir  
TILLAQOZIYEV**



U yog'och o'ymakorligi bilan shug'ullanadi. Shu kunga qadar yaratgan ishlari bilan turli tanlovlarda munosib o'rinlarni qo'lga kiritgan. Jumladan, 2021-yil "Amaliy va tasviriy san'at" festivalida oltin medalni, 16 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yog'och o'ymakorlari o'rtasida Farg'ona viloyatida bo'lib o'tgan musobaqada hamda "O'zbekiston mening nigohimda" nomli tanlovda 1-o'rinni oldi.

Biror dastgoh ustida soatlab o'tirish va mayda qirralarga mehr hamda ohistalik bilan ishlov berish ancha mashaqqat talab etadi. Qahramonimiz hunar bobida qat'iyatini ko'rsatib, 1 haftada o'zining "O'zbek gerbi" asarini yaratgan. Uning eng yaxshi ishlaridan birini tanlab, ma'lumot bermoqchimiz.

Muhammadqodirning aytishicha, "O'zbek gerbi"ning yaratilishidan maqsad gerbimizni ko'klarga ko'tarish. Shu sabab gerbning ikki yoniga balandroq parvoz qilishi uchun Humo qushi qo'yilgan. Ijodkorning bu asarida naqqashlik, yog'och va ganch o'ymakorligi, nafis gullar bilan boyitilgan miniatura ham o'z aksini topgan.

Albatta, shunday asar e'tiborsiz qolgan yo'q. Qo'qonda o'tkazilgan Xalqaro hunarmandchilik festivalida qatnashgan Muhammadqodirning bu ishiga muhtaram Prezidentimiz ham o'zining ijobiy fikrini bildirgan.

Yoshlarimizning bunday natijalarga erishishi, noyob iste'dod ekani barchamizni quvontiradi. Bugungi qahramonimiz yaratgan ishlar bilan sahifamiz orqali tanishishingiz mumkin.



## IQTIDOR VA IXTIRO NAMOYISHI



**Qarshi shahrida innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "Innoweek – 2022" innovatsion g'oyalari ko'rgazmasi bo'lib o'tdi.**

Ko'rgazma doirasida tadbirkorlar bilan 2 milliard so'mdan ortiq shartnomalar imzolandi. Haftalikda "Techno Ways" texnologik rivojlanish marafoni ham o'tkazildi. Unda 58 nafar yoshlar o'zlarining ilmiy ishlanmalari bilan ishtirok etdi. Ko'rgazmada 98 ta tadbirkorlik subyektlari, korxonalar, tashkilotlardan 569 ta mahsulot, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazi tomonidan 119 ta ishlanma namoyish etildi.

**O'ZA** fotomuxbiri

**Jamshid NORQOBILOV** olgan suratlar.



## YOSHLAR OVOZI

Bosh muharrir:  
**Hamza  
ABDULLAYEV**

**Muassis:**  
O'zbekiston yoshlar ittifoqi  
Markaziy Kengashi

**Bosh hamkor:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Yoshlar ishlari agentligi

Navbatchi muharrir:  
**Muhammadshukur  
MUHAMMADJONOV**

Musahhihlar:  
**Rashid XO'JAMOV,  
Qirizoy HAKIMOVA**

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida teriladi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100083, Toshkent, Matbuotchilar ko'chasi, 32. Telefonlar: (7) 233-22-16, (7) 236-79-96.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-3 formatda chop etildi. Hajmi – 2 bosma toboq. Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. Indekslar: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-955, Adladi – 10525. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00.

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



1 2 3 4 5 6